1991-yildan chiqa boshlagan

# TIL VA ADABIYOT TA’LIMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

# ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

# LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.

**2024-yil.**
**3-son.**

**Tahrir hay’ati:**

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Bohodir JOVLIYEV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To‘lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO‘LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Adiba DAVLATOVA
Lutfullo JO‘RAYEV
(bosh muharrir o‘rinbosari)

**Bosh muharrir v.v.b.**

Lutfullo JO‘RAYEV

**Sahifalovchilar:**

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

**Nashr uchun mas’ullar:**

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

**Tahririyat manzili:**

100038, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko‘chirib bosilgan maqolalar “Til va adabiyot ta’limi”dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda muallif-larning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kel-maydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilin-maydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tas-diqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2024.20.02. da topshirildi. Of-set usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60x841/8. Shartli bosma tabog‘i 6,0. “Arial” garniturasi. 10, 11 kegl. “ECO TEXTILE PRODUCT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko‘chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 4600 nusxa. Bahosi ke-lishilgan narxda.

## MUNDARIJA

Adabiy taqvim

**Mahliyo Ahmadaliyeva.**
“Men hayotni kuylayman...” .......... 3

Dars – muqaddas

**Ra’no Absalomova.**
Omonimlar va ularning uslubiyati .......... 4

Metodik tavsiya

**Dilafruz Kurbanova.**
Effective English language teaching – Elaborating on six essential aspects .......... 8
**Umida Madaminova.**
Teaching aids and authentic materials in online classroom .......... 10
**Gulorom Tulaboyeva.**
Bo‘lajak filologiya yo‘nalishi talabalarini professional faoliyatga tayyorlash metodikasi .......... 12
**Oydin Mo‘minova.**
Kredit-modul o‘qitish tizimida interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati .......... 14

Tilshunoslik

**Xushnoza Abduvohidova.**
Qishloq xo‘jaligi terminlarining leksik- semantik tahlili .......... 16
**Bunyod Xoliyorov.**
Maxsus maqsadlarda ingliz tili o‘qitishda leksik kompetensiyani autentik materiallar vositasida rivojlantirish .......... 17
**Dilfuza Saydaliyeva.**
Produktiv va reproduktiv metodlar asosida filologiya fanlarini talabalarga o‘qitishning nazariy va amaliy asoslari .......... 19
**Feruza Sobirova.**
Ingliz va o‘zbek tillarida uy jihozlari nomlarining qo‘llanilishi .......... 21
**Mukaddam Alixonova.**
O‘zbek tilidagi paremiyalarda oziq-ovqat texnologiyasi terminologiyasining o‘rni .......... 23
**Nilufar Kiyomidinova.**
The importance of artificial intelligence in teaching a foreign language .......... 24
**Nodirbek Xabibillayev.**
“Affiksoid” atamasi kerakmi? .......... 26

Tahlil

**Nuriniso Umarova.**
Ijodkor ham, she’riyat ham – davr farzandi .......... 27
**Xolida Bazarova.**
Asqar mahkam she’riyatida imon tushunchasi .......... 29
**Zukhra Khazratova.**
The theory of improving lexical competence and reading comprehension .......... 31
**Shaxlo Xalilova.**
Ingliz va o‘zbek folklor janrlaridagi o‘xshash xususiyatlar .......... 32

Tadqiqot

**Baurjan Sayfullayev.**
Qozoq adiblari asarlaridagi o‘zbek tili leksikasining semantik xususiyatlari .......... 34
**Nilufar Tashmatova.**
“Gulshan ul-asror”da omonim leksemalar .......... 38
**Naima Rejapova.**
Oliy ta’lim muassasalarida chet tilning kasbga yo‘naltirilgan fanlar mazmuni bilan integratsiyasi .......... 40
**Dilshoda Ibraximova.**
Ingliz va o‘zbek tillari antroponimik birliklarining lisoniy va nutqiy vazifalari .......... 43

Kichik tadqiqot

**Dinara Muminova.**
Bolaning kognitiv rivojlanishi uchun pedagogik jarayonda rasmli kitoblardan foydalanish .......... 45

**Xurshid Sarimsokov.**
Sportga doir sharhlarda stilistik birliklarning antonimik va sinonimik xususiyatlari .......... 47
**Olima O‘rinova.**
Qashqadaryo qipchoq shevalarida sut mahsulotlarining leksik-semantik xususiyatlari .......... muqovaning 3-sahifasi

Методика. Опыт

**Феруза Худайкулова.**
Синонимия простых предложений с обстоятельствами места и сложных предложений с придаточными места .......... 49

Из опыта преподавателя

**Шоира Машарипова.**
Организация и содержание проектно-исследовательской деятельности учащихся .......... 51
**Матлюба Мирханова.**
Теоретические аспекты развития языковых навыков .......... 52
**Шахноза Артикова.**
Проблемы описания вежливости как коммуникативной категории .......... 54

Языкознание

**Фахриддин Абдурахманов.**
Сопоставительный анализ семантических классов глаголов при изучении семантики предложного падежа .......... 57
**Бахтиёр Гафуров.**
Концептуальная структура фразеологических единиц и их экспрессивно-стилистические, эмоционально-оценочные свойства .......... 59
**Любовь Раджабова.**
Трудности аудирования при изучении иностранного языка .......... 60

Культура речи и общения

**Тахмина Акрамова.**
Стихотворный язык как средство общения посредством искусства .......... 62
**Альфия Галямова.**
Некоторые виды проявления вербальной агрессии .......... 63

Культурное наследие

**Зухриддин Нуридинов, Эльдар Гиздулин, Нафисахон Кудбиева.**
Отражение свадебных обычаев в литературе .......... 65

Вопросы культуры

**Элина Абдуллаева.**
Перспективы и возможности развития региональных международных отношений через использование национальных культурных центров .......... 67

Научные исследования

**Гульнара Махкамова.**
Проблемы духовно-нравственного воспитания студентов и их решение .......... 69
**Ольга Шевцова.**
Стилистическое направление изучения системы словообразования современного русского языка .......... 72
**Ферузахон Якубова.**
Развивающий подход к обучению РКИ и его влияние на личностные аспекты студентов: анализ психологических и педагогических факторов .......... 75

Формы обучения

**Азизхон Рахмонов.**
Возможности и перспективы использования видеоматериалов при обучении русскому языку .......... 79

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI
ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

*jurnali*

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

## ZULFIYAXONIM TAVALLUDIGA 109 YIL



Joriy yilning 1-mart kuni Zulfiyaxonim Isroilova tavalludining 109 yilligi munosabati bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Xalqaro jurnalistika fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi talabalari ishtirokida tadbir tashkil qilindi.

Davra suhbati davomida qizlar bahor kuychisi Zulfiyaxonim she'rlaridan namunalar o'qidilar va shoiraning hayotidan videoroliklar namoyish qilishdi.

Tadbir so'ngida ishtirokchilar "Adiblar xiyoboni"da joylashgan Zulfiyaxonim haykali hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining muzeyida bo'ldi. Muzeyda ham talabalar o'rtasida shoiraning qalamiga mansub she'rlar o'qildi, mushoira tashkil etildi. Faol qatnashgan talabalar Uyushma tomonidan kitoblar bilan taqdirlandi.

## "ZULFIYA"CHILAR TAQDIRLANDI

8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi.

Unga ko'ra, a'lo xulqi, noyob iste'dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta'lim, fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun 28 nafar xotin-qizlar taqdirlandi.

## "HUMO ARENA" MAJMUASIDA NAVRO'Z




21-mart kuni poytaxtimizdagi "Humo Arena" majmuasida Navro'z bayrami tantanalari bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, barchani Navro'z bayrami bilan tabrikladi.

Bayram tadbirida xorijiy davlatlarning elchilari, xalqaro tashkilotlar vakillari ham ishtirok etdi.

Bayram shodiyonasi katta konsert dasturi bilan davom etdi. Tantanadan so'ng, Prezident Navro'z saylida bo'lib, milliy madaniyat markazlari, folklor-etnografik jamoalar chiqishlarini kuzatdi.

Aytish joizki, ko'p millatli xalqimizda Navro'z barcha millat va elat vakillarining sevimli bayramiga aylangan. Bugungi kunda, hududlarda 38 ta do'stlik jamiyati va 153 ta milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Tadbir davomida, davlatimiz rahbari shunday markazlarning ko'rgazmalari va kuy-qo'shiqlarini ham tomosha qildi hamda ular bilan samimiy suhbatlashdi.

Navro'z sayillari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida, tuman, qishloq va ovullarda davom etmoqda.

## BOBURGA BAG'ISHLANGAN XALQARO ELEKTRON PLATFORMA YARATILDI




Hozirda baburid.uz manzilida yaratilgan platforma sinov tariqasida ishlayotgan bo'lib, ushbu loyiha Temuriylar tarixi davlat muzeyi jamoasi hamda Bobur nomli xalqaro jamoat fondi hamkorligida ishlab chiqilgan.

Unga Bobur hayoti va ijodiga oid 30 mingdan ziyod kitob, maqola kabi fayllarning yuklamasi joylanishi rejalashtirilmoqda.

Plarformaning "Virtual sayohat" bo'limida "Bobur va jahon madaniyati muzeyi", "Bog'i Bobur istirohat bog'i", "Boburning ramziy qabri", "Bobur xalqaro jamoat fondi", "Andijon shaharsozlik madaniyati" muzeylariga sayohat qilish imkoniyati mavjud.

**Internet manbalari asosida tayyorlandi.**

**Mahliyo AHMADALIYEVA,**
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

# "MEN HAYOTNI KUYLAYMAN..."

## Zulfiya lirikasi va hayot yo'liga bir nazar

Zulfiya XX asr o'zbek she'riyati, ayniqsa, doston janri rivojiga ulkan hissa qo'shgan mashhur shoiradir. Uning ijodida turfa tuyg'ular, fikrlar, g'oyalar: hayotga muhabbat, ijod zavqi, kelajakka umidlar, insoniyat baxti, oshiqlar fidoyiligi, ayol sabr-toqati, shuningdek, dushmanlarga, yovuzlikka nafrat, halokatli urush olib kelgan baxtsizliklar, g'alabalardan faxrlanish ifodalangan. Zulfiya ijodining nafasini belgilovchi omil – yuksak, hayotiy va faol insonparvarlik. Shoira o'z farzandini asrab-avaylagan ona kabi hayot quvonchlaridan zavqlanib yashashga, g'amga hamdard bo'lishga, ma'naviy dardlarga davo topishga intiladi, tinchlikni, adolatni, ezgu amallarni asrab-avaylashga chorlaydi. Shoiraning onasi tabiatan ziyoli, bilimli ayol farzandlarini ishonch bilan buyuk hayot sari yetaklaydi. Xadicha opa xalq og'zaki ijodi bilan yaxshi tanish edi, farzandlariga ertaklar, rivoyatlar, dostonlar aytib berardi. O'tmishni eslab, shoira shunday yozadi: "Onam jim edi, esimda, doim g'amgin edi. Ammo unda qullik ezilishi yo'q edi... Qanchadan qancha qo'shiq va rivoyatlarni bilardi, qanday qilib aytishni, kuylashni, biz bolalarni ertak bilan o'ziga rom etar edi! So'zga mehrli, mo'jizalar yaratuvchi, olamni ochib beradigan, insonni go'zallik sari yetaklovchi..." Tabiiyki, ona farzandlarining oliy ma'lumotli bo'lishini juda xohlardi. Uning orzulari amalga oshdi. Zulfiya 1928-yilda boshlang'ich maktabni tugatgach, Toshkent pedagogika bilim yurtiga o'qishga kiradi. Shu yillarda uning adabiyotga ishtiyoqi kuchaydi. U Alisher Navoiy, Lutfiy, Fuzuliy, Shekspir, Bayron, N.A.Nekrasova, M.Y.Lermontov. S.Ayniy, G'ayratiy asarlarini o'qib, zamonaviy adiblar ijodini yaqindan o'rgandi. Daholar ijodi bilan tanishish uni ilhomlantirdi.

She'rlar yozish qobiliyatini kashf etgan Zulfiya bu sevimli mashg'ulotidan kimdir xabar topishidan, ehtimol, ustidan kulishidan cho'chirdi. "...Oddiy-oddiy iboralarda emas, misralarda o'ylay boshladim... Ichimda jaranglagan satrlarni qayerda o'qiganimni eslay olmadim. Avvaliga o'zim ham she'r yozayotganimga ishonmadim. Bu hayratlanarli, hatto biroz qo'rqinchli edi...", deb yozadi shoira.

O'n besh yoshida pedagogika bilim yurti talabasi bo'lgan paytda, oradan bir muncha vaqt o'tgach, she'rlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilinishini tasavvur qila olganmikan? Zulfiyaning "Qizil ro'mol" nomli ilk she'rining yozilishiga burqani tashlab, fabrikalarda ishlay boshlagan ayollar hayoti turtki bergan bo'lsa ajab emas. 1930-yildan boshlab "Ishchi" va "Kolxozchi bolalar" gazeta va jurnallarida yosh shoiraning ilk she'rlari chop etildi. 1932-yili o'n yetti yoshli Zulfiyaning "Umr sahifalari" nomli birinchi she'riy to'plami chiqdi. Unda zamon ruhi bilan sug'orilgan "Ko'tarilish qo'shig'i", "Ulug' bayram uchun", "Men ishchi qiziman", "Zavod yo'lida", "Dehqon qizi" kabi she'rlar bor. Biroq bu she'rlarda muallifning olam, voqelik, inson haqida o'z nuqtayi nazari hali qat'iylashmagan edi. Taqdiri Hamid Olimjonning taqdiri bilan bog'liqligi uning hayoti va ijodida burilish yasadi. 1938–1939-yillarda Zulfiyaning "She'rlar" va "Qiz qo'shiqlari" nomli she'riy to'plamlari nashr etildi. Ulardagi she'rlarida shoira Vatanning go'zal manzaralari, gullagan bog'lari, mangu bahorini jo'shqinlik bilan madh etadi. Ayniqsa, bu jihatdan "Bahor", "Bahor kechasi" kabi she'rlari alohida ajralib turadi. "Xojar", "Ordinchi", "Sevdim seni", "Talaba" she'rlarida shoira ayollarning yangi hayotga, kelajakka ishonch ruhini yaqqol ifodalaydi. Zulfiya bu davrda ishq va sadoqat, ayriliq va o'lim, ona, tong va shom, tinchlik va hayot, yurtdoshlarining jasorati haqida ko'p yozadi, bularning barini u o'z hayoti va tajribasi prizmasidan ko'radi. 50-yillarda o'sha davr siyosati va mafkurasi ta'sirida yozilgan "Saodatning musofir ayolga javobi", "O'zbek qizining ovozi" she'rlari bundan mustasno. Uning ko'plab asarlari haqiqiy lirika namunasidir.

Urush yillarida Zulfiya ijodi mazmunan teranlashdi, badiiy barkamollik kasb etdi. Bu paytga kelib, shoiraning "Uni Farhod deb atashgan", "Ayriliq kunlarda", rus tilida "Vafo" to'plamlari nashr etildi. Bu to'plamlardagi she'rlarda Zulfiya ijodida falsafiy mazmun chuqurlashganini kuzatamiz. Shoiraning "Uni Farhod deyishgan", "Olov va yo'l she'ri", "Xotiram siniqlari" dostonlari muvaffaqiyat qozongan asarlardir.

Zulfiyaning tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg'ularning kutilmagan yangi timsollar bilan boyigan lirikasi kitobxon qalbini larzaga soladi, insoniyatning kelajakka ishonchini mustahkamlaydi. Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug'yonlarining bilimdoni bo'lgan shoira turli janrlarda: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar, hikoyalar, ocherklar, publitsistik maqolalar va gazeta xabarlari yozdi. Uning ko'p she'rlari sobiq Ittifoq xalqlari tinchligi va do'stligini mustahkamlashga bag'ishlangan edi. Urush yillari u vatanparvarlik ruhida she'rlar yaratdi. Shuningdek, o'zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozdi. Masalan, "Zaynab va Omon" operasiga libretto shular sirasidan. Shu bilan birga, turmush o'rtog'i Hamid Olimjon qala-

miga mansub “Semurg‘” dostoni asosida ertak-sahna asarini yaratdi. Shoira adabiy-ijtimoiy faoliyati uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Zulfiya ilmiy va adabiy jamoatchilikning keng miqyosdagi e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Shoiraning, ayniqsa, “Ayriliq kunlarda”, “Seni kuylayman, hayot”, “Shalola”, “Mushoira”, “Yillar va o‘ylar”, “O‘g‘lim, sira urush bo‘lmaydi” kabi to‘plamlari va she’rlari zamonaviy o‘zbek she’riyatiga tom ma’noda yangilik bo‘lib qo‘shildi. “O‘rik gullaganda”, “Ko‘rdingmi ko‘z yoshlarimni” kabi she’rlarda lirik qahramonning kechinmalari har tomonlama ta’sirchan ifodalangan. Eng muhimi, bu she’rlar o‘quvchiga tushunarli ekani, uning taqdiri bilan bog‘liqligidadir. Jumladan:

*Yurakda ajralish, qo‘llarda lira,*
*Men hayotni kuylayman, qayg‘u ketadi,*
*Kechasi seni orzu qilaman, kunduzi esa*
*sen yaqinsan.*
*Toki men tirikman va sen menda tiriksan, –*

satrlarida aks etgan lirik qahramonning qayg‘usi ifodalari o‘quvchini o‘ylashga, mushohadaga chorlaydi. Shoira o‘z lirik qahramonining ma’naviy olamini zamondoshlar o‘y-xayollari, hayoti, kechinmalarini shu tarzda uyg‘unlashtirib talqin etadi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya zamonaviy o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos o‘ringa ega shoira bo‘lishi bilan birga, inson sifatida ham shu xalqning barcha oliyjanob fazilatlarini o‘zida mujassam etgan ijodkor edi. O‘zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lmasin, bu adabiyot bog‘ida tom ma’nodagi mashhur ijodkorlar yetishib chiqqan. Ular orasida porloq yulduzlardan biri Zulfiyadir. Istiqlol davriga kelib ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo‘lmoqda. Zulfiyaning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg‘a intilishi, sevgi bobida sadoqatli ekanligi, badiiy ijodda tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklariga bardoshliligi, erishilgan yutuqlar oldida o‘zini yo‘qotmagani barchaning qalbida havas va hayrat tuyg‘ularini uyg‘otadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sultonova M. Ijod sahifalari. – Toshkent, 1975.
2. Karimov N. Zulfiya. Ma’rifiy biografik asar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. Umurova G. Zulfiya lirikasida tuyg‘ular tadriji // Xorijiy filologiya, 2018, 4(4), 83–88-betlar.

*Dars – muqaddas*

**Ra’no ABSALOMOVA,**
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti akademik litseyining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

# OMONIMLAR VA ULARNING USLUBIYATI

**Darsning mavzusi:** So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari. Omonimlar uslubiyati

**Darsning maqsadi:**

**a) ta’limiy maqsad:** o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, og‘zaki va yozma savodxonligini oshirish;

**b) tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarning ma’naviy olamini boyitish;

**d) rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarni fikrlash qobiliyati, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi va mustahkamlovchi.

**Darsda foydalaniladigan usullar:** “Muammoli vaziyat”, “Tinglab tushunish”, “Klaster”, “Aqliy hujum”, ko‘rgazmali ma’ruza, suhbat.

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** kompyuter, videoproyektor, ekran, ovozkuchaytirgich, mavzuga oid videolavhalar, tarqatma va audiomateriallar, slaydlar.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

O‘quvchilar bilan salomlashilib, navbatchi axboroti asosida davomat qilinadi, o‘quvchilar va sinf xonasining darsga tayyorligi ko‘zdan kechiriladi. O‘quvchilar 4 guruhga bo‘linadi.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar 4 guruhga bo‘linadi va har bir guruhga alohida topshiriq beriladi:

1. Leksikologiya bo‘limida qaysi mavzular o‘tiladi?
2. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari bir-biridan qanday farqlanadi?
3. Ko‘chma ma’nolar turlarini sanang.
4. So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini ayting.